www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

" Bilvosita soliqlarning byudjet daromadlaridagi o’rni "

Saodatxon Karimova

magistrant, Iqtisodiyot fakultet, Farg'ona davlat universiteti

saodatxonkarimova2000@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bilvosita soliqlar bo`yicha chuqur izlanishlar olib borgan holda uni mohiyatini, maqsadini o`rganish, hamda davlat budjetini shakllantirishdagi o`rnini aniqlagan holda unga tahliliy xulosalar chiqarish va hozirgi kunda, soliq siyosatining asosini soliqqa tortish tizimidagi islohotlarni amalga oshirish va soliq siyosatini yanada erkinlashtirish bo’lib, buning asosiy yo’nalishi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliq yukni kamaytirish hamda budjet daromadlarini yanada oshirishga qaratilgan chora tadbirlarni tashkil qilish to’g’risida yoritilgan.

Kalit so'zlar: bilvosita soliq, davlat byudjeti, soliq siyosati, soliq yuki

«Роль косвенных налогов в доходах бюджета»

Каримова Саодатхон Улугбек кизи
магистрант факультет экономики
Ферганский государственный университет

Аннотация: В данной статье проводится углубленное исследование косвенных налогов, изучение его сущности, назначения и определение его места в формировании государственного бюджета, делаются аналитические выводы о нем, и в настоящее время основой налоговой политики является проведение реформ в системе налогообложения и налоговой политике дальнейшая либерализация, основным направлением которой является организация мероприятий, направленных на снижение налоговой нагрузки на юридических и физических лиц и дальнейшее увеличение доходов бюджета.
Ключевые слова: косвенный налог, государственный бюджет, налоговая политика, налоговая нагрузка

" The role of indirect taxes in budget revenues"

Saodatxon Karimova
Master’s student, Faculty of Economics, Fergana State University
saodatxonkarimova2000@gmail.com

Annotation: In this article, conducting in-depth research on indirect taxes, studying its essence, purpose, and determining its place in the formation of the state budget, making analytical conclusions about it, and currently, the basis of tax policy is the implementation of reforms in the taxation system and tax policy. further liberalization, the main focus of which is the organization of measures aimed at reducing the tax burden on legal entities and individuals and further increasing budget revenues.
Keywords: indirect tax, state budget, tax policy, tax burden


www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

Davlat faoliyatini barcha yo`nalishlarini mablag` bilan ta`iminlashning asosiy iqtisodiy vositalaridan biri, bu soliqlar hisoblanadi. Davlat budjeti daromadlarini shakllanishida, hamda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda soliqlar juda katta ahamiyatga egadir. Soliqdan tushadigan tushumlar davlat iqtisodiy mustaqilligining asosiy manbai hisoblanib, davlat rivojlanishini ta`minlaydi.

Bilvosita soliqlarni huquqiy to‘lovchilari mahsulot (ish, xizmatni) yuklab yuboruvchilar hisoblanadi. Ammo soliq og‘irligini haqiqatan ham budjetga to'lovchilari tovar (ish, xizmat)ni iste’mol qiluvchilardir, ya’ni egri soliqlarning barchasi bevosita iste’molchilar zimmasiga tushadi. Bu soliqlar tovar (ish, xizmat) qiymati ustiga qo'shimcha ravishda qo'yiladi.

Bilvosita soliqlarning ijobiy tomoni shundaki, ular respublikada ishlab chiqarilgan tovarlarni respublikadan tashqariga chiqib ketishini chegaralaydi, mamlakat ichida tovarlarning serob bo‘lishiga yordam beradi hamda inflyatsiya darajasini (muomaladagi ortiqcha pul massasini) birmuncha jilovlab turishini ta’minlaydi. Bilvosita soliqlar stavkasining asosli ravishda oshirilishi korxonalar faoliyatining moliyaviy yakuniga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir etmaydi, ya’ni investitsion faoliyatini qisqartirmaydi. Ammo soliq stavkasi ilmiy asoslanmasdan oshirib yuborilsa, bunday holatda korxonalar o‘z tovarlarini sotish qiyinchiligiga duch kelishlari mumkin.

O’zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari tarkibida bilvosita soliqlarning o’rnini quyidagi 1-rasm orqali ko`rib o`tamiz.



Davlat byudjetining umumiy daromadlaridagi ulushi

Oxirgi uch yil uchun soliq tizimida bilvosita soliqlarning tarkibiy tahlili (1-rasm) quyidagilarni ko‘rsatadi:

- bilvosita soliqlarning ulushi (2021 yilda - 34,2%) Davlat byudjeti daromadlari tarkibida 2019 yildan boshlab jiddiy qisqargan va buning asosiy sabablari: QQS stavkasining 20%dan 15%gacha pasaytirilishi, QQSni hisobga olish va qoplashning to‘laqonli tizimining joriy qilinishi, importga aksiz solig‘i bo‘yicha nol darajali stavkalarning joriy etilganligini ko’rishimiz mumkin.

O`zbekistonda 2022 yilning I yarim yilligi uchun Davlat byudjetining daromadlari 92,6 trillion so`mni tashkil etdi

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

Byudjet daromadlarining ijrosi bo`yicha dastlabki natijalariga ko`ra, ko`rsatkich 2021 yilning I yarim yilligiga nisbatan 17,8 trillion so`m (+23,7 foiz) ko`p bo`lgan. Soliq tushumlari 71 trillion so`mni yoki daromadlar umumiy hajmining 76,7 foizni tashkil etdi. Bojxona tushumlari 21,5 trillion so`mni yoki umumiy hajmining 23,2 foizni tashkil etgan.

2022- yilning 1-yarim yilligi uchun davlat budjeti daromadlarini ijro etish

T/p	Кўрсаткичлар	Ҳақиқий тушум
	Давлат бюджети даромадлари, жами	**92,6**
	шу жумладан:	
1	Давлат солиқ қўмитаси	71,0
2	Давлат божхона қўмитаси	21,5
3	Бошқалар	0,1
	шундан ҚҚСни қоплаш	*-8,3*

O'zbekiston Respublikasi davlat budjetida bilvosita soliqlarning tarkibi va dinamikasi(%)(2019-2021)

	2019 y.		2020 y.		2021 y.		O'sish 2021/2019
	summa	salmog'i %da	summa	salmog'i %da	summa	salmog'i %da	%da
Davlat byudjeti daromadlari	**112 165**		**132 938**		**164 681**		**146,8**
shu jumladan:							
1. **Bilvosita soliqlar - jami**	46 429	**41,4**	46 428	**34,9**	56 292	**34,2**	**121,2**
2.1 Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS):	33 810	30,1	31 177	23,5	38 439	23,3	113,7
- QQS bo'yicha tushumlar	37 055	33,0	40 224	30,3	52 856	32,1	142,6
- QQS bo'yicha qoplash	-3 245	-2,4	-9 046	-6,8	-14 417	-8,8	444,3
2.2 Aksiz solig'i	10 316	9,2	11 697	8,8	13 088	7,9	126,9
2.3 Bojxona boji	2 303	2,1	3 554	2,7	4 765	2,9	206,9

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

Bilvosita soliqlarni tarkibini ko'rib chiqadigan bo'lsak ular tarkibida asosiy o'rinni qo'shilgan qiymat solig'i egallaydi, undan keyngi o'rinda aksiz va boj to'lovlari egallaydi. Buni yuqoridagi jadvalda ham ko'rishimiz mumkin

QQS(qo'shilgan qiymat solig'i). Oxirgi uch yilda QQS tushumlarining nisbatan pasayish kuzatilgan - o'sish dinamikasi jami 113,7% (2021 yilda 2019 yilga nisbatan), barcha soliqlar tushumlari dinamikasida - 146,8%ga nisbatan. Bundan tashqari, soliqlarning umumiy tushumida QQSning salmog'i pasaygan (30,1%dan 23,3%gacha), garchi ushbu soliq respublika byudjet tizimini tashkil etuvchi asosiy soliq turlaridan biri bo'lishiga qaramay hisoblanadi. Shunga qaramay, Moliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, QQS samaradorligi (yig'iluvchanligi bo'yicha) 2020 yildagi 44,5%dan 2021 yilda 48%gacha oshdi (QQS yig'ish samaradorligi = QQSdan daromad YaIMdan foizlarda / QQS stavkasi).

Aksizlar. Oxirgi uch yilda aksizlar tushumlarining nisbatan katta bo'lmagan - o'sish dinamikasi jami 126,9%, barcha soliqlar bo'yicha 146,8%ga nisbatan. Bundan tashqari, soliqlarning umumiy tushumida aksizlar salmog'i o'smagan: - 2021 yilda aksizlar tushumining 2020 yildagiga nisbatan 1,4 trln so'mga oshishi asosan 2021 yil fevral va oktyabrda soliq stavkalarini o'rtacha 15%ga indeksatsiya qilish hisobiga ta'minlangan. Ya'ni amalda aksizlar bo'yicha soliq bazasi faqat indeksatsiya qilish hisobiga o'sgan.

Bu ko'rsatkichlar natijasida 2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti daromadlari prognoz ko'rsatkichlari aniqlandi.

2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti daromadlari prognozi.(mlrd.so'm)

T/r	Ko'rsatkichlar	Summa
	O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti daromadlari	**183 442,8**
1.	**Bevosita soliqlar**	**47 127,1**
1.1.	Foyda solig'i	37 140,4
	shundan, "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati va "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati bo'yicha	*16 518,1*
1.2.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	9 986,7
2.	**Bilvosita soliqlar**	**84 515,5**
2.1.	Qo'shilgan qiymat solig'i	63 775,4
2.2.	Aksiz solig'i	13 988,1
2.3.	Bojxona boji	6 752,0
3.	**Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i**	**14 780,1**
3.1.	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	14 780,1
4.	**Dividendlar**	**29 532,2**
	shundan, "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati va "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati bo'yicha	25 532,2
5.	**Boshqa daromadlar va soliq bo'lmagan boshqa tushumlar**	**7 488,0**

Prognozga ko'ra 2023- yil uchun ham bilvosita soliqlarning dinamikasi yuqori (84515,5mlrd.so'm). Bilvosita soliqlarni tarkibini ko'rib chiqadigan bo'lsak ular tarkibida

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

asosiy o'rinni qo'shilgan qiymat solig'i egallaydi(63775,4mlrd.so'm), undan keyingi o'rinda aksiz (13988,1 mlrd.so'm) va boj to'lovlari(6752,0 mlrd. so'm) egallaydi.

Respublikamizda amal qilayotgan soliqlar hozirgi kunda yalpi ichki mahsulotning qariyb uchdan bir qismini taqsimlab, budjetga jalb etadi va u orqali davlatning ijtimoiy zaruriy xarajatlarini moliyalashtirishga yo`naltiriladi. So`ngi yillarda bevosita soliqlarning salmog`i yalpi ichki mahsulotda kamayib, bilvosita soliqlar salmog`i kun sayin oshib bormoqda. Bu holda to`g`ri tendensiya mavjuddir, chunki bilvosita soliqlar to`g`ridan-to`g`ri korxonaning investitsion faoliyatini susayishiga olib kelmaydi.

Xulosa qilib aytganda, bilvosita soliqlarni budjet daromadlarida tutgan o`rni bilan qisqacha tanishib chiqdik, bu mavzuda egri soliqlarning mohiyati, mazmuni hamda bu soliq bo`yicha olimlarning turli hil qarashlaridan kelib chiqib yanada mustahkamroq bilim va tushunchaga ega bo`lish mumkin.

Soliq tizimi barqarorligini ta`minlashda to`g`ri va egri soliqlarga oid bo`lgan nazariyalarni o`rganish, yondashuvlarni uyg`unlashtirgan holda tahlil qilish hamda respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda yondashish, to`g`ri va egri soliqlar o`rtasidagi maqbul nisbatni ta`minlashga qartilgan soliq tizimini takomillashtirish yo`nalishidagi muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining "Soliq va budjet siyosatining 2023 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi, shuningdek soliq hisoboti davriyligi qisqartirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni. 30.12.2022 yildagi O'RQ-812-son
2. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining 2022 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 30.12.2021 yildagi O'RQ742-son
3. O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 29 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-741-son Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasining 2021- yil 30- dekabrdagi " 2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari hamda 2020-2021-yillarga budjet mo'ljallari" to'g'risida qarori, 26.12.2018 yildagi PQ-4086-son
6. Almardonov M. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. –T.: "Cho'lpon nomidagi NMIU", 2019. -296 b.
7. Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T: "Sharq", 2009. –448 b..
8. http://www.soliq.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi
9. http://www.mf.uz - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
10. http://www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi